

## **BUXORO XONLIGI MADANIY HAYOT.**

*Bo'riyeva Oyjamol O'ralovna*

*Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi 3-umumta'lim maktabining*

*Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Buxoro xonligi (amirligi) — o'zbek davlatchiligi tizimidagi xonliklardan biri (16—20-asr boshlari). 1533 yilgacha mamlakat markazi Samarqand bo'lgan. Ubaydullaxon davrida (1533—39) poytaxt Buxoroga ko'chirilgan va xonlik Buxoro xonligi nomini olgan. 1510 yil Marv yonida Shayboniyxon shoh Ismoil I Safaviy qo'shinlaridan yengilib halok bo'lgandan keyin Movarounnaxr temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur qo'lga o'tadi. Lekin, ko'p o'tmay shayboniylar yana Movarounnaxrni egallaganlar. Shu vaqtdan boshlab Movarounnaxr butunlay shayboniylarga tobe bo'lgan. O'sha vaqtlarda xonlikka hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning katta qismi, Balx va Badaxshon kirgan. Ubaydullaxon vafotidan keyin Buxoro xonligi mayda bo'laklarga bo'linib ketgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro xonligi, o'zbek davlatchiligi, xonliklar, shayboniylar, Movarounnaxr, Buxoro, Toshkent, Turkiston,

Xonlik yoki hoqonlik — xon tomonidan boshqariladigan davlat birligi yoki tuzumi. Davlat boshqaruv shakli — monarxiya.

Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon, Samarqandda esa Ko'chkunchixonning o'g'li Abdullatifxon mustaqillik e'lon qilgan. Balx va Badaxshonda shayboniylardan Pirmuhammadxon mustaqil hukmronlik qilgan. Shu yillari shayboniy sultonlari va mahalliy mulqdorlarning hokimiyat uchun kurashi kuchaygan. Toshkent va Turkistonda Navro'z Ahmadxon (Baroqxon), Karmana va Miyonqolda Iskandarxon, Balxda Pirmuhammadxon va boshqa kichikkichik hukmdorlar mustaqil bo'lib olganlar. 1551—56 yillarda shayboniylar o'rtasidagi

Movarounnaxr uchun kurashda Iskandarxonning o'g'li Abdullaxon g'olib chiqib, Buxoro xonligi da o'z hokimiyatini o'rnatgan. 1557 yildan boshlab Buxoro uzilkesil xonlik poytaxtiga aylangan. Iskandarxon (1563—83) va uning o'g'li Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi ning siyosiy mavqei ortgan.

Abdullaxon II Balx (1573), Samarqand (1578), Toshkent (1582), Farg'ona (1583), Badaxshon (1584), Ko'lob (1585), Xuroson (1588), Xorazm (1595—96) ustidan o'z hukmronligini o'rnatgan; markaziy davlat boshqaruv devonini mustahkamlagan. Shunday qilib 16-asr oxiriga kelib Buxoro xonligi markazlashgan ulkan davlatga aylangan. Sharqda Qashqar bilan chegaradosh bo'lgan, g'arbiy chekkasi Orol va Kaspiy dengizi sohillarigacha borib tutashgan. Xonlikning shim.dagi chegaralari Turkiston va Sayramgacha yetib, jan.da Xurosonning sharqiy qismini o'z ichiga olgan. Shayboniylar hukmronligi yillarida, ayniqsa Abdullaxon II zamonida Buxoro xonligi da dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan, madaniy hayot ancha yuksalgan. Juda kup sug'orish inshootlari: Abdullaxon bandi, Tuyatortar kanali, Oqchopsoy to'g'oni va suv ombori, Vaxshdan chiqarilgan ko'plab ariqdarning qurilishi dehqonchilikni rivojlantirdi. Bu vaqtlarda Buxoro xonligi da bug'doyning 10 xil turi, suli, qo'noq, jo'xori, mosh, no'xat, makkajo'xori, loviya, sholi, paxta, kunjut, beda, arpa, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan, bog'dorchilik, chorvachilik va ipakchilik rivojlangan. Samarqand, Buxoro, Marg'ilon, Xo'jand, Andijon, Toshkent, Jizzax, O'ratepa, Shaxrisabz va boshqa yirik shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy qilgan. Samarqand qozi kalonining hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, XVI-asrda Samarqandda hunarning 61 turi mavjud bo'lgan. Movarounnaholik kosiblar zo'r san'at bilan turlituman metall buyumlar, ip va ipak matolar, a'lo navli qog'ozlar ishlab chiqarganlar.

Buxoro shahri bir muncha kengaytirilgan, devor va harbiy istehkomlar qaytadan qurilgan. Shaharda madrasalar, xonaqoh va karvonsaroylar, yangi rastalar barpo qilingan. Shaharlar o'rtasidagi savdo yo'llarida tim (Abdullaxon timi), ko'chalar chorrahasi ustiga gumbaztoqlar, hammomlar, karvon yo'llarida sardobalar,

karvonsaroylar, ko'priklar qurilgan. Shayboniylar zamonida Buxoro xonligining Hindiston, Turkiya, Rossiya bilan savdo va diplomatik munosabatlari rivojlangan.

Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, 1572—78 yillari Hindistonda Buxoro xonining elchilari, Buxoroda esa Hindiston podshohi Akbarntt elchilari bo'lgan. Abdullaxon davrida boshlangan ichki siyosiy nizolar natijasida 1598 yilda Abdullaxonning o'zi va shu yilda uning o'g'li Abdulmo'min o'ldirilgan. Taxtga Pirmuhammadxon II chiqqan. Ammo uning hukmronligi ham uzoqqa bormay, 1601 yil taxtdan ag'darilgan. Shu bilan qariyb 100 yil hukm surgan shayboniylar sulolasi barham topib, Movarounnaxrda Jo'jixon naslidan bo'lgan ashtarxonjlar (joniylar) sulolasi hukmronligi boshlangan.

Ashtarxoniylar davrida xonlikda siyosiy nizo va beboshliklar deyarli to'xtamagan. Dastlab asli ashtarxonlik, Buxoroda qo'nim topgan shahzoda Jonibekning o'g'li Boqi Muhammad (1601—05), so'ngra uning ukasi Vali Muhammad (1605—11) taxtga o'tqazilgan. Imomqulixon davrida (1611—42) qozoq biylari va boshqa ko'chmanchilarning Buxoro xonligi yer lari ga talonchilik yurishlari kuchaygan. Chunonchi Imomqulixon 1612 yil Toshkentni egallab, o'g'li Iskandarni hokim etib tayinlaydi, ammo shaharda qo'zg'olon ko'tarilib Iskandar o'ddiriladi. Imomqulixon Toshkent aholisini shafqatsiz qirg'in qilib shaharni yana xonlikka qo'shib oladi. Uning davrida xonlik ancha mustahkamlanadi.

Imomqulixon ko'r bo'lib qolgach, taxtni egallagan ukasi Nadr Muhammadxon (1642—45) ham shafqatsizligi va zolimligi bilan norozilik chiqaradi. Natijada muxolif kuchlar tazyiqi bilan taxtdan voz kechadi. Hokimiyat uning o'g'li Abdulaziz II (1645—81) qo'liga o'tadi. U markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qiladi, lekin tobora kuchayib borayotgan tarqqlikni bartaraf qilolmaydi. Bu vaqtda Eron shohi Abbos /Balxni egallaydi, keyinroq Balx Erondan qaytarib olingan. Abdulaziz II bilan uning ukasi Subhonqulixon o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlanadi. Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon va undan keyin o'g'li Anushaxon Buxoro va Samarqand atrofiga tez-tez hujum qilib turgan.[1]

Taxtni egallab olgan Subhonqulixon (1681 — 1702) o‘z raqiblariga qarshi shafqatsiz kurashgan. U Balx va Xurosonga harbiy yurishlar qilgan. Uning o‘g‘li Ubaydullaxon (1702—11) hukmronligi davrida Balx, Termiz, Shahrisabz hokimlari mustaqil bo‘lib olishga harakat qilganlar. Xon ularga qarshi harbiy yurishlar qilishga majbur bo‘lgan. Samarqand va Hisorda bosh ko‘targan qabilalarga qarshi qo‘shin yuborgan. O‘zaro beto‘xtov urushlar, harbiy yurishlardan keyin xazina bo‘shab, iqtisodiy ahvol mushkullashgan. 1708—09 yillarda o‘tkazilgan pul islohoti natijasida pul qiymati to‘rt marta tushib ketgan. Islohotdan zarar ko‘rgan aholi g‘alayon ko‘targan, biroq qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostirilgan. Xonlikda siyosiy va iqtisodiy ahvolning yomonlashishi ichki ziddiyatlarni kuchaytirib yuboradi. Ayrim nufuzli amirlar uyushtirgan fitna natijasida Ubaydullaxon 1711 yil da o‘ldiriladi.

Taxtga marhum xonning ukasi Abulfayzxon (1711—47) nomigagina xon qilib o‘tqaziladi. Hokimiyatdagi muhim lavozimlar nufuzli amirlar qo‘liga o‘tib qoladi. Markaziy hokimiyat zaiflashgach, 1711 yilda Balx, 1723 yilda Samarqand viloyati Buxoro xonligi dan ajralib chiqadi. 1720 yillarda Toshkent viloyatini qalmoqlar bosib oladi. Shu asnoda Xiva xoni Sherg‘ozixon ham Buxoro xonligi ga da’vogar bo‘ladi, ammo uning harakatlari samarasiz yakunlanadi. 1723 yilda qalmoqlar qozoq dashtlariga bostirib kirib qozoqlarni Movarounnahr ga qochishga majbur qilgan.[2] Qozoqlar chorva mollari bilan Zarafshon vodiysiga kirib bog‘ va ekinzorlarni payhon qilganlar. Buxoro xonligi da iqtisodiy va siyosiy tanglik kuchaya borib xonlik tanazzulga yuz tutgan. Movarounnahr parchalanib, uchta xonlikka (Buxoro, Qo‘qon va Xiva) bo‘linib ketgan. Bundan foydalangan Eron hukmdori Nodirshox 1740 yil bahorida Balxni egalladi va o‘sha yili kuzda katta qo‘shin bilan Amudaryodan o‘tib Buxoro xonligi ni bo‘ysundiradi. U mang‘it qabilasidan bo‘lgan Muhammad Hakim otaliqni ishonchli vakili sifatida taxtga o‘tqazadi.

Abulfayzxonning nufuzi pasayib ketadi. Xonlik Nodirshohning o‘limidan keyin (1747) Eronga tobeliqdan qutulib, o‘z mustaqilligini tikladi. 1747 yilda otasi o‘rniga otaliq tayinlangan Muhammad Raxim boshliq fitnachilar Abulfayzxonni o‘ldirdilar.

Bundan norozi bo'lgan viloyat hokimlari isyon ko'tardilar. Qo'zg'olonlar shafqatsiz bostirilgach, Muhammad Rahim arkoni davlat va ruhoniylar fatvosi bilan 1753 yilda Buxoro taxtini egalladi va o'zini „amir“ deb e'lon qildi. Shundan keyin ashtarxoniylar sulolasi barham topib mang'itlar sulolasi hukmronligi boshlandi.

Buxoro amirligi. Muhammad Rahim vaqtida (1753—58) Buxoro amirligiga qarashli yerlar ancha qisqargan. Uning tarkibiga Buxoro, Samarqand, Miyonqol, Karmana, Qarshi, G'uzor, Karki, Chorjo'y, Shahrisabz viloyatlari kirib, Toshkent va Farg'ona viloyatlari xonlik tasarrufidan chiqib ketgan. Doniyolbiy otaliq vaqtida (1758—85) ham o'zaro urushlar davom etib, Karmana, O'ratepa, Nurota, Sherobod, Boysun va boshqa joylarda mahalliy kuchlar bosh ko'tarib, poytaxt izmidan chiqishga harakat qilganlar.

Doniyolbiyning katta o'g'li Shohmurod hukmronligi davri (1785— 1800)da Doniyolbiy joriy etgan soliqlardan bir qanchasi bekor qilindi, iqtisodiy hayot birmuncha yaxshilandi. Ruhoniylarning mavqei oshdi. Mang'itlar sulolasi markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qanchalik urinmasin, viloyat hokimlarining mustaqillikka intilishi davom etaverdi. Ayniqsa Buxoroga muxolif bo'lgan Shahrisabz va Kitob beklari bilan kurash shiddatli bo'ddi. Faqat 1853 yildagina bu beklklarni Buxoroga bo'ysundirishga muvaffaq bo'lindi. Amir Haydar davri (1800—26) ham ichki va tashki urushlardan xoli bo'lmadi.[3] Ayniqsa O'ratepa bir necha marta qo'ldanqo'lga o'tib turdi. 19-asr 1choragida Buxoro bilan Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasida O'rta Osiyoda ustunlikka erishish uchun qirg'inbarot va talontaroj urushlari bo'ldi. Toshkent, Turkiston, Chimkent va ularning atrofi Qo'qon xonligi tasarrufiga o'tdi. 1825 yilda Xiva xonligi Buxoroga qarashli Marvni egalladi. To'xtovsiz urushlar, soliqlar miqdorining ortishi qo'zg'olonlarga, jumladan 1821— 25 yillarda Buxoro va Samarqand oralig'ida istiqomat qiluvchi xitoyqipechoq qabilalari qo'zg'oloniga sabab bo'ldi (qarang Miyonqol ko'zyuloni). Amir Haydarning vorisi Nasrullaxon (1827— 60) amirlik yerlarini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. U taxtga da'vog'ar bo'lish mumkin bo'lgan barcha shaxslarni qirib tashladi. Nasrullaxon 1839, 1841 va 1858

yillarda Qo‘qon xonligiga bostirib kelib, aholini qirg‘in qildi va boyliklarini taladi. 1842 va 1843 yillarda Buxoro bilan Xiva xonliklari o‘rtasida harbiy to‘qnashuvlar bo‘ldi.

Podsho Rossiyasi O‘rta Osiyoni mol sotish bozori, xom ashyo manbai deb bilar edi. 1866 yil rus qo‘shinlari Buxoro amirligi chegaralariga bostirib kirdi va Xo‘jand (24 may), O‘ratepa (2 okt.), Jizzax (18 okt.) shaharlarini ishg‘ol qildi. Istilo etilgan yerlarni boshqarish uchun 1867 yil Turkiston generalgubernatbrligi tashkil etildi. 1868 yil 2 may kuni general Kaufman boshchiligidagi rus qo‘shinlari Samarqandni ishg‘ol qildi. Iyun oy i da Buxoro amiri Muzaffar qo‘shinlariga Zirabuloq yaqinida so‘nggi qat’iy zarba beriddi. Amir generalgubernatorga murojaat qilib, sulh tuzishni so‘radi. 1868 yil 23 iyunida ikki o‘rtada shartnoma imzolandi. Rus qo‘shinlari bosib olgan yerlar podsho Rossiyasi ixtiyoriga o‘tdi; Buxoro amirligi mustaqil tashqi siyosat yurgizishdan mahrum bo‘ldi; amir rus podshosiga 500 ming so‘m tovon to‘ladi. 1873 yil 28 sentabrda mazkur shartnomaga qo‘shimchalar kiritilib, amirlikning Rossiyaga qaramligi yanada kuchaydi.

Natijada amirlik yerlarining uchdan bir qismi podsho Rossiyasi ixtiyoriga o‘tdi; Xo‘jand, O‘ratepa, Panjikent, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlaridan tortib Zirabuloqqacha bo‘lgan yerlar, Sharqiy Buxoroda esa Shug‘non, Vohon, Ro‘shon viloyatlari, ayniqsa Zarafshon daryosi yuqori havzasining qo‘ldan ketishi amirlikdagi xalqlarni asosiy hayot manbai — suvdan mahrum etdi, bu hol Buxoro amirligini Rossiyaga iqqisodiy jihatdan qaramligini yanada oshirdi.

Buxoro amiri huquqiy jihatdan mustaqil hukmdor sanalsa ham, haqiqatda rus podshosiga qaram edi. Amir va uning amaldorlariga qarshi xalq harakatlari podsho Rossiyasi qo‘shinlari yordamida bostirilar edi. Amir Abdulaxad rus podshosining generalad’yutanti hisoblangan. Uning davrida rus ma’murlari amirlikda katta imtiyozlarga ega bo‘lgan. Amirlik yerlaridan o‘tgan temir yo‘l bo‘ylariga rus aholisi keltirilib joylashtirildi. BuxoroAfgoniston chegarasining muhofazasi bilan ham rus qo‘shinlari shug‘ullangan. Buxoro amirligining podsho Rossiyasiga tobeligi amir

Olimxon zamonida (1910—20) yanada ortdi. Amirlikda yettita rus xususiy bankining shu’basi ish olib borardi. Birinchi jahon urushi boshlanishi bilan amirlik aholisining ahvoli yanada og’irlashdi. Xuddi shu davrga kelib jadidlik harakati asosida yosh buxoroliklar partiyasi faoliyati kuchaydi. 1917 yil Fevral inqilobi munosabati bilan bu partiya amirlikni podsho Rossiyasi bo’yinturug’idan qutqazish, ba’zi islohotlar o’tkazish ishiga kirishdi. Yosh buxoroliklar rus bolsheviklari bilan hamkorlikda 1918 yil martida amir hukumatini ag’darishga urindilar. Ammo bu harakat muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1920 yil 2 sentabrda Buxoro bosqini natijasida amirlik tugatildi.[4]

### **Xulosa:**

Buxoro xonligida davlatni boshqarish boshqa xonliklardan deyarli farq qilmagan. 16—17-asrlarda otaliq lavozimidagi shaxs xonning o’ng qo’li hisoblanib, u butun mamlakatni boshqargan. Naqib harbiy ishlar va tashqi siyosat bilan shug’ullangan. Vaqf yerlarni nazorat qilish sadrlar zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, qo’shin uchun alohida qozi (qoziaskar) tayinlangan. Qonunshunoslikka va umuman shariatga doir muhim masalani yechish va hayotga tatbiq etish alam zimmasida bo’lgan. Devonbegi otaliq mansabidan keyin turgan.

U urush va sulh ishlari, ayrim viloyat boshliqlarini tayinlash va boshqa masalalar bilan shug’ullangan. Larvonachi xon yorliqlarini topshirish va harbiy qismlarga boshchilik qilish kabi vazifalarni ado etgan. Shuningdek, xonlikda yasovul, eshikog’aboshi, miroxur, shig’ovul, amiri lashkar, to’pchiboshi, mirzaboshi, xazinachi, mehtar, mirob, kushbegi va boshqa lavozimlar bor edi. Mang’itlar sulolasi davrida ham mustabid hokimiyat shakli mavjud bo’lib, amir huquqi chegaralanmagan oliy hukmdor edi. Ijro etuvchi hokimiyatni bosh vazir — qushbegi boshqargan. U xon bilan bamaslahat ish yuritgan. Jamiyat hayoti shariat qonunlariga asoslangan. Mamlakat murakkab davlat apparati orqali idora qilingan.

Maye, moliya ishlari devonbegiyi kalonga, davlat xavfsizligi ko’kaltoshga, ichki tartibni saqlash va nazorat qilib turish raisp topshirilgan. Buxoro qozi kaloni huzurida

a'lam va 12 muftiyayan iborat rivoyatlar tuzuvchi muftiylar devoni bo'lgan. Amirlikda musulmon ruhoniylari yuqori mavqega ega edi. Ular katta yerlarga egalik qilardi. Shayxulislom bosh ruhoniyy va adliya ishlarining sardori hisoblangan. U jamiyat ma'naviy hayotini boshqargan. Sud hokimiyati ruhoniylar qo'lida bo'lgan. Barcha qozilar qozi kalonga bo'ysungan.

Davlat boshqaruvida u yoki bu lavozim vazifasiga qarab o'zgarib turgan. Xonlikda o'rta asrchilik boshqaruv tizimining uzoq saqlanishi taraqqiyot va qo'shin kuchqudratiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Qo'shinda dastlab misdan, 19-asr boshlarida cho'yandan quyilgan bir necha to'p bo'lgan. Sarbozlar o'qyoq, nayza, qilich, oybolta kabi ibtidoiy qurollar bilan qurollangan. Xonlikda qo'shin asosan otliklardan tashkil topgan. 18-asr oxiridagi ma'lumotga ko'ra, xon 10 ming kishilik qo'shin to'plash imkoniga ega bo'lgan. 19-asr 30- yillarida yollanma askarlar soni 19 ming kishi bo'lib, ular xizmatini turli shahar va harbiy istehkomlarda o'taganlar. 19-asr o'rtalarida harbiy qismlar, shuningdek to'p va miltiqlar soni ortgan. Umumiy qo'mondonlik amiri lashkar zimmasida bo'lgan. Umuman xonlikda qo'shin har jihatdan zamon talabidan ancha orqada edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston tarixi. 7-sinf Abdulahad Muhammadjonov Toshkent-2019[1]
2. O'zbekiston tarixi, 8 sinf, Jo'rayev, Toshkent-2019. [2]
3. O'zbekiston tarixi, 9-sinf S.Tillaboyev A.Zamonov Toshkent-2014[3]
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)[4]
5. Toshtemirova, S. (2020). Factors Affecting the Quality of Education and the Importance of the Education Cluster to Address Them. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(4), 151-156.
6. J.N. Abdurakhmanova, S.B. Jumaeva, U.K. Ismailov (2020). The Importance of Shrines in The Spiritual Life and Mentality of Uzbek People // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* 24 (09) 2389- 2398.
7. G'afforov, Y., Nafasov, A., & Nafasova, Z. (2020). From the History of the Beginning of the "Great Game". *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 2798-2802.
8. Matchonov S. (2020). Adabiy ta'lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tafakkur muammolari // *Научный вестник Ташкентского государственного педагогического университета*. № 1 –С. 110-115